

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

O‘quv ishlari bo‘yicha
prorektor X.Xamzayev

“ ” 2026yil

«KELISHILGAN»



O‘quv-uslubiy boshqarma
boshlig‘i A.Norboyev

«KELISHILGAN»

Fizika va texnologik ta’lim

fakulteti dekani

M.Yusupov

60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta’lim
(sirtqi) yo‘nalishi bitiruvchilari uchun mutaxassislik fanlardan

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI
DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi

JIZZAX- 2026

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi 836-son qarori 1-ILOVA si bilan tasdiqlangan **“Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi NIZOM** talablari asosida ishlab chiqilgan.

Mutaxassis chiqaruvchi tasviriy san’at va muhandislik grafikasi bo‘lib, dastur mazkur kafedraning 2026-yil 10-fevraldagi 2-yig‘ilishida muhokama qilingan hamda fizika va texnologik ta’lim fakultetining 2026-yil 11-fevraldagi Kengashida ma’qullangan. Universitet Kengashining 2026-yil _12_- fevraldagi yig‘ilishida tasdiqlangan.

Tuzuvchilar

T.T.Oltmishev – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi
kafedrasi katta o‘qituvchi

P.U.Xudayberdiyev – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi
kafedrasi dotsent

A.R.Ibragimov – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi
kafedrasi o‘qituvchi

Taqrizchilar:

O.Sh.Baymurzayeva – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi
kafedrasi katta o‘qituvchi

J.N.Ergashev – Jizzax ixtisoslashtirilgan san’at maktabi o‘qituvchisi

KIRISH

Yakuniy davlat attestatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 25-avgustdagi 365-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 60111200- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi (sirtqi) yo'nalishi malaka talablari asosida ishlab chiqilgan ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi majburiy fanlardan o'tkaziladi.

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI o'tkaziladigan fanlar tarkibi (amaliy):

1. Qalamtasvir (majburiy fanlari)
2. Rangtasvir (majburiy fanlari)
3. Chizmachilik (majburiy fanlari)

“Qalamtasvir” o'quv fani bo'yicha

Qalamtasvir fani, uning predmeti, maqsadi, vazifasi

Qalamtasvir fani - barcha tasviriy san'at turlarining ya'ni rangtasvir, dekorativ amaliy san'at, grafika, xaykaltaroshlikning asosi sifatida bo'lajak pedagog rassomlarga borliqni ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash, borlikni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini shakllantirish hamda bo'lajak rassom-pedagoglarni tasviriy san'at asoslariga o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi.

Qalamtasvir fanining vazifalari boshqa kasbiy fanlari qatorida bo'lajak o'qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanib, u talabalarga amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Shuni ta'kidlash lozimki, amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo'lajak rassom-pedagoglarga ularning keyingi pedagogik va ijodiy faoliyatlarida muhim o'rin tutadi.

Qalamtasvir faning rivoji.

" **Qalamtasvir** -" tushunchasining paydo bo'lishi. **Qalamtasvir** ining tarixiy rivojlanish davrlari. **Qalamtasvir** rivojining zamonaviy bosqichi. Tasviriy san'at olimlarning « **Qalamtasvir** » tushunchasiga ta'riflari.

Ta'lim jaravonida ta'lim oluvchi shaxs

O'quvchi shaxsi ta'lim jarayonining obyekti va subyekti sifatida. **Qalamtasvir** mashg'ulotlarini o'tishda tasviriy san'at asoslari, kompozitsiya qonuniyatlari, chiziqli, havo, perspektivalari, ufq tekisligi siluet, konstruktsiya, shtrix, masshtab, nisbatlar, materiallar xususiyatlari, yorug'-soya qonuniyatlari, turli tasvirlash vositalari. Bilim, ko'nikma va malakalar (BKM). Aqliy harakat usullari (AHU). Pedagogning innovatsion faoliyati va uning tuzilishi.

Ta'limni tashkil etish shakllari.

Zamonaviy ta'limga asosiy yondoshuvlar. Rivojlantiruvchi ta'lim. Ta'lim turlari (illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan ta'lim) va shakllarining tavsifi. Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma – xil turlari. Innovatsion, masofaviy ta'lim. Ta'limni tashkil etish shakllari. individual; individual – guruhli; sinf – dars; ma'ruza – amaliy; sinfdan tashqari; auditoriyadan tashqari; maktab va maktabdan tashqari. Darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi didaktik talablar. Darsning maqsadi va vazifalari. Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchanlik vazifalarining birligi va uzviyligi.

Ta'limni tashxislash.

Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yilgan talablar. O'qituvchi nazorati va ta'lim oluvchilar faoliyatini baholashning uyg'unligi. Bilimlarning natijalarini baholashda pedagogik testlarning roli.

Pedagogik texnologiyalar tasnifi

Pedagogik texnologiyalar turlari: qo'llanilish darajasiga ko'ra; falsafiy asoslariga ko'ra; asosiy omillari bo'yicha; ilmiy kontseptsiyalar bo'yicha; bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish turiga ko'ra va boshqa qobiliyatlar.

“Qalamtasvir” fanidan variantlar

I - variant

1. Odam gavdasini xolis fonda ishlash

II – variant

1. Odam gavdasini akademik Akademik qalamtasvir asoslariini ishlash

III – variant

1. Odam gavdasini o'tirgan holatini interer bilan birga ishlash

IV-variant

1. Odam gavdasini dinamik holatda shlash

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. Baymetov B. “Akademik qalamtasvir asoslari”. Darslik 1-qism.- Toshkent, 2006.
2. Oltmishev T “Qalamtasvir”O'quv qullanma Jizzax.2025y. Ilim nuri print MCHJ
- 3.Xydayberdiyev P. “Qalamtasvir”O'quv qullanma Toshkent 2023y. Metodist nashriyoti.

Qo'shimcha adabiyotlar:

3. B.Boymetov “Akademik qalamtasvir asoslari” Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 1997.
- 4.Tojiyev B, Mahkamova S. “Akademik qalamtasvir asoslari” (dastlabki saboqlar). Metodik qo'llanma.Toshkent, 2013.
5. P.Thomas, A.Taylor Drawing, London-2011

Axborot manbaalari

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz

“Rangtasvir” o‘quv fani bo‘yicha

Rangtasvir fani, uning predmeti, maqsadi, vazifasi

Rangtasvir fani - barcha tasviriyl san‘at turlarining ya‘ni rangtasvir, dekorativ amaliyl san‘at, grafika, xaykaltaroshlikning asosi sifatida bo‘lajak pedagog rassomlarga borliqni ko‘rib-kuzatib to‘g‘ri tasvirlash, borlikni idrok etish, qo‘l, ong va sezgi organlarini shakllantirish hamda bo‘lajak rassom-pedagoglarni tasviriyl san‘at asoslariga o‘rgatishni maqsad qilib qo‘yadi.

Rangtasvir fanining vazifalari boshqa kasbiyl fanlari qatorida bo‘lajak o‘qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanib, u talabalarga amaliyl mashg‘ulotlar orqali olib boriladi. Shuni ta‘kidlash lozimki, amaliyl mashg‘ulotlar qatorida nazariyl bilimlar ham bo‘lajak rassom-pedagoglarga ularning keyingi pedagogik va ijodiy faoliyatlarida muhim o‘rin tutadi.

Rangtasvir faning rivoji.

“Rangtasvir” - tushunchasi. “Rangtasvir” tushunchasining paydo bo‘lishi. Rangtasvirning tarixiy rivojlanish davrlari, Rangtasvir rivojining zamonaviyl bosqichi. Tasviriyl san‘at olimlarning “Rangtasvir” tushunchasiga ta‘riflari.

Ta‘lim jarayonida ta‘lim oluvchi shaxs

O‘quvchi shaxsi ta‘lim jarayonining obyekti va subyekti sifatida. Akademik qalamtasvir asoslari mashg‘ulotlarini o‘tishda tasviriyl san‘at asoslari, kompozitsiya qonuniyatlari, chiziqli, havo, perspektivalari, ufq tekisligi siluet, konstruktsiya, shtrix, masshtab, nisbatlar, materiallar xususiyatlari, yorug‘-soya qonuniyatlari, turli tasvirlash vositalari. Bilim, ko‘nikma va malakalar (BKM). Aqliyl harakat usullari (AHU). Pedagogning innovatsion faoliyati va uning tuzilishi.

Ta‘limni tashkil etish shakllari.

Zamonaviyl ta‘limga asosiy yondoshuvlar. Rivojlantiruvchi ta‘lim. Ta‘lim turlari (illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan ta‘lim) va shakllarining tavsifi. Ta‘limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma – xil turlari. Innovatsion, masofaviyl ta‘lim. Ta‘limni tashkil etish shakllari. individual; individual – guruhli; sinf – dars; ma‘ruza – amaliyl; sinfdan tashqari; auditoriyadan tashqari; maktab va maktabdan tashqari. Darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi didaktik talablar. Darsning maqsadi va vazifalari. Darsning ta‘limiy, tarbiyaviyl va shaxsni rivojlantiruvchanlik vazifalarining birligi va uzviyligi.

Ta‘limni tashxislash.

Ta‘lim natijalarini tekshirish va baholashga qo‘yilgan talablar. O‘qituvchi nazorati va ta‘lim oluvchilar faoliyatini baholashning uyg‘unligi. Bilimlarning natijalarini baholashda pedagogik testlarning roli.

Pedagogik texnologiyalar tasnifi

Pedagogik texnologiyalar turlari: qo‘llanilish darajasiga ko‘ra; falsafiy asoslariga ko‘ra; asosiy omillari bo‘yicha; ilmiyl kontseptsiyalar bo‘yicha; bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish turiga ko‘ra va boshqa qobiliyatlar.

“Rangtasvir” fanidan variantlar

1. Variant

Mavzu: “Uy-ro`zg`or buyumlaridan tashkil topgan naturmortni tasvirlash” (Akvtarel bo`yog`ida).

1. Uy-ro`zg`or buyumlari.
2. Ko`k va qizil mato.

2. Variant

Mavzu: “Geometrik jismlar” dan tashkil topgan natuymortni tasvirlash” (Akvtarel bo`yog`ida).

1. Geomitrik jismlar “kub” “shar” “prizma” .
2. Yashil va qizil mato..

3. Variant

Mavzu: Kantrast rangli jismlardan tashkil topgan mavzuli naturmort ishlash (Akvtarel).

1. Rangli jismlar .
2. Olma va banan mulyaj.
3. Sar va ko`k mato .

4. Variant

Mavzu: Issiq ranglardan tashkil topgan naturmort tasvirini bajarish. (Akvtarel)

1. Ko`za .
2. Qizil olma, banan mulyaj.
3. Qizil va sariq mato.

5. Variant

Mavzu: Sovuq ranglardn tashkil topgan jism va david haykalining “ko`z” bo`lagi ishtirokida naturmortni tasvirlash. (Akvtarel)

1. Qora ko`za.
2. David haykalining “ko`z” bo`lagi.
3. Turup mo`lyaji.

6. Variant

Mavzu: Grizal uslubida naturmort chizish.

1. Gipsdan yasalgan “kub, konus, prizma”
2. Ko`k mato.

7. Variant

Mavzu: David haykalining bosh qismini rangtasvirda bajarish.

1. David haykalining bosh qismi.
2. Ko`k va qizil mato.

8. Variant

Mavzu: Apalon haykalining bosh qismini rangtasvirda bajarish

1. Apallon haykalining bosh qismini rangda bajarish.
2. Ko`k va qizil mato.

9. Variant

Mavzu: Kesin bosh “balvanka” ni rangtasvirda ishlash.

1. Kesin bosh "balvanka"
2. Yashil va qizil mato.

Asosiy adabiyotlar

1. Toshmurodov. M.E. "Rangtasvir amaliyoti" (dastgohli rangtasvir), O'quv-uslubiy qo'llanma. Elektron resurs. T., "CHashma print", 2010 y.
2. X.X.Ibragimov "RANGTASVIR (PLENER)", darslik Chirchiq-2024 CHDPU
3. Baxriyev. I.S. "RANGTASVIR" darslik Chirchiq 2024 CHPU
4. Sultanov X.E. TASVIRIY SAN'AT TEXNLOGIYASI VA NUSXA KO'CHIRISH darslik Toshkent 2022 CHDPU

Qo'shimcha adabiyotlar.

Zolotuxin Y.V. Vipolneniye etyuda golovi v texnike maslyanoy jivopisi metodicheskiye rekomendatsii g. Yalta 2018.

Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guption Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 41.

R.A.Xudayberganov. Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2015, 128 bet.

Babenko A.V., Xorujaya N.V. Osnovi kompozitsii v izobrazitel'nom iskusstve uchebno-metodicheskoye posobiye. – Tomsk : Tomskiy gosudarstvenniy universitet, 2011. – 116 s.

X.E. Sultanov, S.T. Sobirov Tasviriy san'at o'qitish metodikasi o'quv qo'llanma T-"Ishonchli hamkor" -2021.

Internet saytlari

1. www.cspi.uz
2. www.lib.cspi.uz
3. www.edu.uz
4. <http://ziyonet.uz>
5. www.pedagogika.uz
6. www.gov.uz

“Chizmachilik” fani bo'yicha

Chizmachilik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Chizmachilik fani har qanday geometrik jismlarning, ob'ektlarning chizmasini hamda grafik modelini tuzish va o'qishdan iboratdir.

Talabalarga kelajakda o'zlarining texnik fikrlarini chizma orqali namoyon qilish, tasvirlangan har qanday buyum, yoki ob'ektlarning chizmasi bo'yicha ishlash prinsipi va konstruktiv tuzilishini tushunib olish va tasavvur qila olish uchun bilim, ko'nikma va malaka berishdan iborat. Vazifasi sifatida standartlashtirish tizimi, mashinasozlik materiallari, materiallarga ishlov berish usullari, texnik o'lchashlar va ularning turlari, loyixalashda chizma ishlarini avtomatlashtirish to'g'risida bilimga hamda amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.


Chizmachilik fanining o'ziga xosliklari.


Chizmachilik quyidagilarni ko'zda tutadi:

- 1) Turli detal, mashina va shunga o'xshashlarni to'g'ri burchakli va aksonometrik proeksiyalarda tasvirlash usullarini (chizmalar chizishni o'rgatish);
- 2) Chizmalarda tasvirlangan narsalar, uzal, detal va shunga o'xshashlarning fazoviy shakllarni fikran tasavvur qilish (chizmalarni o'qish) mahoratini shakllantirish.

Chizmachilik fanida buyum va inshootlarni grafik tasvirlash metodlarini o'rganishga oid bo'lgan asosiy qoidalar, tegishli standartlar hisobga olingan holda bayon etiladi.

“Chizmachilik” fanidan variantlar





Asosiy adabiyotlar

1. J.Yodgorov, "Geometrik va proyeksion Geometrik va proyeksion chizmachilik", T.: "Fan". 2008.
2. Sh.K.Muròdov va boshqalar, Topografik Geometrik va proyeksion chizmachilik, T.: Cho'lon, 2009.
3. J.Yodgorov, Mashinasozlik chizmachiligi, T., O'zbekiston, 2009.
4. I.Raxmonov, A.Valiev. Geometrik va proyeksion chizmachilik, "Voriz-nashriyot" T.: 2011.
5. A.Valiev. Geometrik va proyeksion chizmachilik (Geometrik Geometrik va proyeksion chizmachilik), T.: TDPU rizografi, 2013.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. J.Yodgorov, A.Narzullayev. Topografik Geometrik va proyeksion chizmachilik - Namangan, "Shalola", 2012.
7. I.Raxmonov, A.Àbduraxmonov, Geometrik va proyeksion chizmachilikdan ma'lumotnoma T.: "Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona". 2005.
8. M.Xalimov, Z.Mirzaliyev, F.Ochilov. Geometrik va proyeksion chizmachilik (geometrik va proyeksion Geometrik va proyeksion chizmachilik) T.: "Adabiyot uchqunlari", 2019.

Axborot manbaalari

9. www.ziynet.uz -jamoat axborot ta'lim tarmog'i

10. www.tdpu.uz

11. www.edu.uz

BAHOLASH MEZONI

I. 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalariga mutaxassislik fanlaridan Davlat attestatsiyasini amaliy shaklda o'tkazish tartibi va baholash mezon

Bitiruvchi kurs talabalariga Akademik qalamtasvir asoslari, rangtasvir va Geometrik va proyeksion chizmachilik fanlaridan Davlat attestatsiyasi amaliy shaklda o'tkaziladi. Bitiruvchi talaba "amaliy" variantlarning uchchalasi yig'ilib 100 ball bilan baholanadi.

Davlat attestatsiyasida har bir amaliy ish uchun quyidagi mezon asosida baholanadi:

Qalamtasvir fanidan - 35 ball

Rangtasvir fanidan - 35 ball

Chizmachilik fanidan - 30 ball

Qalam tasvir fanidan talaba ishni to'g'ri joylashtirgan, umumiy tuslangan, tayanch nuqtalari to'g'ri topilgan bo'lsa, planlar to'g'ri topilgan bo'lsa, tasvirlanayotgan inson qiyofasidagi nisbatlarni to'g'ri aniqlagan bo'lsa, xarakterini topgan bo'lishi va qo'yilgan vazifa to'laqonli tugallangan bo'lsa, talabaning o'zlashtirish ko'rsatgichi **31 - 35 ball** oralig'ida baholanadi;

-talaba ishni to'g'ri joylashtirgan, umumiy tuslangan, tayanch nuqtalari to'g'ri topilgan bo'lsa, planlar to'g'ri topilgan bo'lsa, tasvirlanayotgan inson qiyofasidagi nisbatlarni to'g'ri aniqlagan bo'lsa, talabaning o'zlashtirish ko'rsatgichi **25 - 30 ball** oralig'ida baholanadi;

-talaba ishni to'g'ri joylashtirgan, tasvirlanayotgan inson qiyofasidagi nisbatlarni to'g'ri aniqlagan bo'lsa, soya-yorug' joylari ajratilib boshlangan (shtrixovkaga o'tgan) bo'lsa, talabaning o'zlashtirish ko'rsatgichi **21 - 24 ball** oralig'ida baholanadi;

-talaba ishni to'g'ri joylashtira olmasa, shtrixovkasi boshlanmagan bo'lsa, tayanch nuqtalari, planlar, tasvirlanayotgan inson qiyofasi nisbatlari, tayanch nuqtalari kabi holatlar umuman topilmagan bo'lsa **0-20 ball** oralig'ida baholanadi; (31-35 ball - a'lo, 25-30 ball - yaxshi, 21-24 ball - qoniqarli, 0-20 ball - qoniqarsiz).

Rangtasvir fanidan talaba ishni to'g'ri joylashtirgan, umumiy tuslangan, tayanch nuqtalari to'g'ri topilgan bo'lsa, planlar to'g'ri topilgan bo'lsa, tasvirlanayotgan buyum(natura)lar nisbatlarni to'g'ri aniqlagan bo'lsa, materialligini to'g'ri topa olgan bo'lsa va qo'yilgan vazifa to'laqonli tugallangan bo'lsa, talabaning o'zlashtirish ko'rsatgichi **31 - 35 ball** oralig'ida baholanadi;

-talaba ishni to'g'ri joylashtirgan, umumiy tuslangan, tayanch nuqtalari to'g'ri topilgan bo'lsa, planlar to'g'ri topilgan bo'lsa, tasvirlanayotgan buyum(natura)lar nisbatlarni to'g'ri aniqlagan bo'lsa, talabaning o'zlashtirish ko'rsatgichi **25 - 30 ball** oralig'ida baholanadi;

-talaba ishni to'g'ri joylashtirgan, tasvirlanayotgan buyum(natura)lar nisbatlarni to'g'ri aniqlagan bo'lsa, soya-yorug' joylari ajratilib boshlangan bo'lsa va qisman ranglangan bo'lsa, talabaning o'zlashtirish ko'rsatgichi **21 - 24 ball** oralig'ida baholanadi;

-talaba ishni to'g'ri joylashtira olmasa, ranglanmagan bo'lsa, tayanch nuqtalari, planlar, tasvirlanayotgan buyum(natura)lar nisbatlari, tayanch nuqtalari kabi holatlar umuman topilmagan bo'lsa **0-20 ball** oralig'ida baholanadi; (31-35 ball - a'lo, 25-30 ball - yaxshi, 21-24 ball - qoniqarli, 0-20 ball - qoniqarsiz).

Chizmachilik fanidan talaba ishni A3 format qog'oziga to'g'ri joylashtirgan bo'lsa, chiziq turlari, o'lcham qo'yish qoidalari, mashtabga amal qilgan bo'lsa, ikki proyeksiyani to'g'ri ko'chirgan bo'lsa va ular asosida uchinchi proyeksiyani to'g'ri topgan bo'lsa. Kerakli qirqimni to'g'ri qo'llay olsa, yaqqol tasvirni va umumiy ishni to'liq tugallagan va to'g'ri bajargan bo'lsa **28-30** ball oralig'ida baholanadi;

-talaba ishni A3 format qog'oziga to'g'ri joylashtirgan bo'lsa, chiziq turlari, o'lcham qo'yish qoidalari, mashtabga amal qilgan bo'lsa, ikki proyeksiyani to'g'ri ko'chirgan bo'lsa va ular asosida uchinchi proyeksiyani to'g'ri topib, proyeksiyalariga kerakli qirqimni bera olsa, **21-27** ball oralig'ida baholanadi;

-talaba ishni A3 format qog'oziga to'g'ri joylashtirgan bo'lsa, chiziq turlari, mashtabga amal qilgan bo'lsa, ikki proyeksiyani to'g'ri ko'chirgan bo'lsa va ular asosida uchinchi proyeksiyani to'g'ri topgan bo'lsa, **18-20** ball oralig'ida baholanadi;

-talaba ishni A3 format qog'oziga to'g'ri joylashtira olmagan bo'lsa, chiziq turlari, o'lcham qo'yish qoidalari, mashtabga amal qilinmagan bo'lsa, ikki proyeksiyani ko'chirishda xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, **0-18** ball oralig'ida baholanadi; (28-30 ball - a'lo, 21-27 ball - yaxshi, 18-20 ball - qoniqarli, 0-17 ball - qoniqarsiz).

5 baholik	100 ballik		Baholash mezonlari
5	90-100	a'lo	"Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi, fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega" deb topilganda
4	70-89,9	yaxshi	"Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega" deb topilganda
3	60-69,9	qoniqarli	"Talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega" deb topilganda
2	0-59,9	qoniqarsiz	"Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi, fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas" deb topilganda

ESLATMA: Yakuniy davlat attestatsiya jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi ballari e'lon qilingan kundan e'tiboran 24-soat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi va talaba o'rtasida baholash ballari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda DAK raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

Kafedra mudiri:



P.Xudayberdiyev